

HUSNIXATGA O'RGATISHNING AHAMIYATI

Usmonova Odinaxon Sobirovna

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Alimjanova Matlyuba Yunusovna

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

O'quvchilarni chiroyli yozuvga o'rgatishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati bor. Chiroyli yozuv o'quvchida mehnat qobiliyatini shakllantirish, yuklatilgan vazifalarni toza, aniq madaniyat bilan bajarishda o'rganish, estetik didni tarbiyalash, chiroyli yozuv imlo xatolarining oldini olishi, xunuk xat o'quvchida yozuvga nisbatan mas'uliyatsizlik hissini uyg'otishi, o'ylamay yozishga, imlo xatolariga befarq bo'lishga olib kelishi, chiroyli yozuvning ijtimoiy ahamiyatidir, hujjatlar o'qib bo'lmaydigan dastxat bilan yozilsa, o'quvchining ko'p vaqtini olishi va tushunmaslikka olib kelishi mumkin.

Qadamda kishilarning o'z fikrlarini boshqalarga yetkazish istagini his qilganliklari, ularni turli predmetlarga: toshga, metall, tuproqqa, teri, daraxt po'stloqlariga yozganlar. Ruchka, qalam, pat va boshqalardan yozuv quroli sifatida foydalanganlar. O'quvchining o'qiy olishi uchun yozuvning aniq, ravshan bo'lishiga intilgan chanqoq, ziyrak bola bo'lishi kerak. O'ta qiyin va murakkab jarayonlardan biri bu yozuvga o'rgatishdir. Mexanik mashqlar va nusxa ko'chirish mashqlari yozuvga o'rgatishda asosiy metod hisoblanadi. Husnixatga o'rgatishning asosiy sharti bu gigienik talabdir. Gigienik sharoitning yaratilishi, maktab mebeli to'g'ri tanlanishi va to'g'ri joylashtirilishi; parta, stul o'quvchilarning bo'ybastiga to'g'ri kelishi, uning tuzilishi yozuv uchun qulay bo'lishi, o'quv xonasi to'g'ri yoritilishi o'quvchilarni partada to'g'ri o'tirishi, ruchkani barmoqlar orasida to'g'ri tutishi, daftarning partada to'g'ri joylashishi, yozuv jarayonida uni to'g'ri surib turish, ko'z bilan daftar oralig'i 30 sm bo'lishi talabga muvofiqli. Yozuvga o'rgatishning ikki uslubi bor: ritmik va qo'l harakatlarini mashq qilish uslubi. Chiroyli yozuv bolalarni yozuvga o'rgatishda kompleks yondashuvdir. Yozuvning har tomonlama talabga javob berishi uchun so'zning grafik va imloviy tomonini to'g'ri shakllantirish lozim. Shuning uchun o'qituvchi doim yozuv materiallarini ko'zdan kechirib, yordamga muhtoj hollarni o'ziga belgilab olishi va qisqacha izohlashdan foydalanishi lozim.

Yozuv -- biror tilda qabul qilingan maxsus belgilar yig'indisi. Yozuv tushunchasi tilning tovush elementlari (so'z, bo'g'in, tovush)ni ifodalovchi belgilargina emas, balki piktografiya, ideografiya shakllarini ham o'z ichiga oladi. Bular aloqa qilish belgilari yig'indisi sifatida yozuvdan ilgarigi belgilar (xotira yozushi, hisoblash yozushi va boshqalar)ga qarama-qarshi qo'yilgan.

Urug'chilik tuzimi davrida dastlab surat yozushi paydo bo'ldi. Kishilik jamiyati kichik va tarqoq oila – urug'lardan tashkil topgan darvda kishilar bir-birlari bilan faqat og'zaki nutq yordamida fikr olishgan. Yirik urug' va qabila jamoalarining tarkib topishi bilan og'zaki nutqni uzoqqa etkazish va uni zamon bilan mustahkamlash ehtiyoji tug'iladi.

Insoniyatning shu ehtiyoji zaminida yozuv paydo bo'lgan. Boshida yozuv bilan bir qatorda grafik shaklga ega bo'lmanan usullar ham qo'llanilgan (mas, iplarni tugib qo'yish). Bunday belgilar ibridoiy odamlar hayotida qo'llanilgan. Bu yozuvning qoldiqlari hozir ham urug'-qabilalarining tamg'alarini, shimoliy indeeslarning chig'anoq marjonlari, biror ijtimoiy tabaqanining xususiy mulkini ifodalovchi belgilar va boshqa shakllarda mavjud.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUN, 2024

Yozuv zamon va masofa jihatidan og`zaki nutqqa nisbatan ustunlikka ega. Texnikaning rivoji (telefon, telegraf, radio, televizor) natijasida undagi ustunlik masofa jihatidan zaiflashdi, lekin zamon e'tibori bilan yozuv xali ham og`zaki nutqdan ustun 19-20 asr boshlarida topilgan va deshifrovka qilingan juda ko`p yodgorliklar yozuvning paydo bo`lishi va tarixiy taraqqiyotini yoritish imkonini berdi. Fanning bu yutug'i yozuv tarixini tilshunoslik fanining mustaqil bir bo`limi sifatida ajratishga olib keldi.

1. Turli tipdagi Misr iyeogliflari. Bu tur yozuv 19-asrning 20-yillarida fransuz olimi Shampalon tomonidan o'qilgan, 19-asrning 70-90 yillarida Evans o'qigan qadimgi Kput surat yozuvlari va Semq o'qigan. Kipr surat yozuvlari ham Misr surat yozuvlari tipiga kiradi.
2. Mixxat yozuvlarining turli tiplari. Bu tip yozuvlar Osiyoda qadimda yashagan qator xalqlarning tillarida ishlatalgan (shumer assiro - ovavilon, elom, xala, xet-kappodokiya, fars tillariga moslangan). Bu tur yozuvlar 19-asr boshlarida deshifrovka qilina boshlanib, 20-asrning 10-yillarida tugallandi.
3. Somiy xalqlarda qayd qilingan va tillariga moslangan harf yozuvining eng qadimgi shakllari. Bular finikiy va xalaan yozuvlari (asosiy yodgorliklari 19-asrning 60-70-yillarida va 20-asrning 20-yillarida topilgan). Janubiy arab, oramey yozuvlari (qadimgi namunalari 19-asrning 60-70 yillarida topilgan). Ko`pchilik mutaxassislarining fikricha, qadimgi uyg`ur va urxun-enesey yozuvlari ham aslida oramey yozuvlari zaminida yuzaga kelgan. Uni 19-asrning 90-yillarida tilunos olimlar V.Tomsen va V.Radlov deshifrovka qilganlar.
4. Yunon alfavitining qadimgi shakli va lotin alifbosining alohida varianti va boshqa turli variantdagi bu yozuv turlari bizgacha etib kelgan. Bu yozuvlar 18-asrdayoq ilm axliga ma'lum bo`ladi va ularning grammatik jihatdan o'rganilishi 19-asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik fanining rivojiga katta yordam ko`rsatdi.

Yozuvning eng qadimgi shakli piktografiyadir. Bu yozuv asosan Amerika indeeslarida aloqa quroli sifatida qo'llanilgan. Chunki ularning til xususiyatlari shunga mos edi. Bu yozuv qadimiyligi bo`lgani uchun unda ideografik yozuv bilan bir qatorda piktografiyaning ham ayrim elementlari bor. Masalan, toshbaqaning rasmi quruqlik tushunchasini ifodalagan, ya`ni shartli belgi vazifasini o'tagan. Chunki quruqlik tushunchasini yozuvda ideografiya bilan berish qiyin edi.

Hayotiy ehtiyoj bora-bora yozuvni soddalashtirdi va tasvirlangan predmet bilan yozuv shakli o`rtasidagi o`xshashlik yo`qoldi, belgi so`zining simvoli bo`lib qoldi. Bu xitoy, misr, shumer, vavilon va xett yozuvlariga xos xususiyatdir.

Papirus yozish uchun maxsus tayyoqcha va bo`yoqning kashf etilishi yozuvni takomillashtirdi, uning soddalashuviga imkon tug'dirdi. Hozir yer yuzida quyidagi besh yozuv asosida tuzilgan yozuv sistemalari tarqalgan.

1. Lotin yozushi (dunyo axolisining 30% ga yaqini foydalanadi); 2) fonetik arab yozushi (10% ga); 3) Slavyan-kirill yozushi (10% ga yaqini); 4) grafik-xitoy yozushi (25% ga yaqin); 5) bo`g`inli xind yozushi (20% ga yaqini) qolgan boshqa yozuv sistemalari (yunon, yaxudiy, efiopiya, gruzin, armon yozuvlari va 6) dan dunyo axolisining 5% ga yaqini foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

2. G`ulomova X. va boshqalar. 1-sinfda ona tili darslari. T., «Sharq», 2003.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUN,2024

3. G`ulomova X. va boshqalar. 4-sinfda ona tili darslari. T., «O`qituvchi», 2003.
4. G`ulomov A. Husnixat. 1-sinf uchun. T., «O`qituvchi».
5. G`ulomov A. Husnixat. 2-sinf uchun. T., «O`qituvchi».
6. Ona tilidan davlat ta'lim standartini amaliyotgan joriy etish. Tuzuvchilar: T.G'afforova va X.G`ulomova. Toshkent, 2001.